

“TASDIQLAYMAN”
“O‘zbekiston TMK” AJ
Boshqaruv raisining o‘rinbosari

_____ **U.N. Ruziyev**

“ _____ ” _____ **2026 yil**

**“O‘zbekiston TMK” AJ Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish
zavodi Perenat ammoniya ishlab chiqarish bo‘yicha geotexnologik sexi
1-sonli uchastkasiga 115 kVt quyosh panellari uchun
(loyiha ishlari, yetkazib berish, montaj, qurilish)**

TEXNIK TOPSHIRIQ

№ t/r	Asosiy ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	Buyurtmachi	“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Vohid Haydarov ko‘chasi 1-uy. E-mail: info@uztmk.uz
2	Ishlab chiqish uchun asos	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-martdagi "2025-2026-yillarda sanoat uchun mineral xomashyo bazasini kengaytirish va ishlab chiqarishni ko‘paytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-128-son qarori.
3	Moliyalashtirish manbai	"O‘zbekiston TMK" AJning o‘z mablag‘lari hisobidan
4	Taxminiy qiymat	Yakuniy narx tanlovdan so‘ng aniqlanadi.
5	Yetkazib beruvchi tashkilot nomi	Tanlov asosida tanlash
6	Pudratchi tashkilot	Tanlov asosida tanlash
7	Loyiha nomi	“O‘zbekiston TMK” AJ NM va QQICH zavodi Perenat ammoniy ishlab chiqarish bo‘yicha geotexnologik sexi 1-sonli uchastkasida elektr energiyasini tejash uchun qo‘shimcha elektr energiyasi bilan ta‘minlash.
8	Loyiha maqsadi	Perenat ammoniy ishlab chiqarish bo‘yicha geotexnologik sexi 1-sonli uchastkasida elektr energiyasini tejash uchun quyosh panellarini o‘rnatish.
9	O‘rnatish joyi	Navoiy viloyati, Zarafshon shahri, Tomdi tumani. - Perenat ammoniy ishlab chiqarish bo‘yicha geotexnologik sexi 1-sonli uchastkasi atrofida bo‘sh yer maydoniga - 115 kVt ;
10	Uskunaning tarkibi va texnik tavsiflari	Quyosh panellari; - Loyiha ishlab chiqish; - Fotoelektr moduli F.I.K 21% dan kam bo‘lmasligi kerak; - Umumiy quvvati: 115 kVt ; - Panel turi: monokristalli kremniy; - Har bir panelning quvvati: 550 Vt dan va undan yuqori (miqdori yakuniy quvvatga qarab tanlanadi); - Panellarga kafolat: kamida 10 yil; - Xizmat muddati: kamida 10 yil. - Himoya sinfi: IP65 va undan yuqori - O‘rnatish tizimi: to‘plamdagi panellar uchun metall zanglamaydigan karkas, shu jumladan barcha mahkamlagichlar va mis kabellardan (kabel o‘lchami 1x6 dan kam emas quyosh panelidan invertorgacha, ulanish nuqtasidan invertorgacha 4x120 dan kam emas) foydalanish. - Invertor: On-Grid - Invertorning quvvati: 115 kVt dan 1 dona;

		- Fotoelektr modulda sifat sertifikatini mavjudligi va muvofiqligi; - Montaj tizimi: qalinligi kamida 1,5 mm bo'lgan metall profil konstruksiyasi karkasi shamlol va qor yukini ko'tara olishi kerak; - Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hisobini yuritish uchun: elektron hisoblagich 1 dona; - Avtomatizatsiyalashtirilgan monitoring tizimi bilan jihozlanishi va masofadan ma'lumot uzatishi kerak;
11	Yetkazib berish komplektatsiyasi	- Tovarining minimal komplektatsiyasi loyiha bilan belgilanadi - Tovar komplektatsiyasi ishlab chiqilgan loyiha hujjatlariga muvofiq bo'lishi va loyiha quvvatiga chiqishni ta'minlashi kerak; - Ijrochi tomonidan yetkazib beriladigan tovarning yakuniy miqdori va nomi buyurtmachi bilan kelishib olinishi kerak; - Ijrochi yetkazib berilayotgan Mahsulotning tegishli sifatda, to'liq jihozlangan va O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan xalqaro standartlar va standartlarga muvofiq bo'lishini kafolatlashi shart; - Ijrochi yetkazib berilayotgan Tovar sifatini O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan xalqaro standartlar va standartlarga javob beradigan Ijrochi yoki ishlab chiqaruvchi zavodning sifat sertifikatini bilan tasdiqlaydi; - Pudratchi Shartnoma qiymati doirasida yetkazib beriladigan asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, qurilish va sarflash materiallari loyiha ko'rsatkichlariga erishish uchun yetarli bo'lishini ta'minlashi kerak; - Buyurtmachi tomonidan yetkazib berilgan tovarning ishlab chiqilgan loyiha hujjatlariga muvofiq emasligi bilan bog'liq bo'lgan tovarlarni qo'shimcha yetkazib berish zarurati aniqlangan taqdirda, Ijrochi tovarning buyurtma berilgan hajmda va kontrakt qiymati doirasida qo'shimcha yetkazib berilishini kafolatlashi kerak; - Ijrochi yetkazib beriladigan materiallar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilishda qo'llaniladigan konstruksiyalar va tizimlar loyiha hujjatlarida, davlat standartlarida, texnik shartlarda ko'rsatilgan sifat va spetsifikatsiyaga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlar, texnik pasportlar yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlashi kerak;
12	O'rnatish talablari	- qurilish montaj ishlari elektr xavfsizligi me'yorlariga rioya qilgan holda malakali mutaxassislar tomonidan bajarilishi kerak; - bo'sh yer maydonlariga o'rnatilgan qismini himoyalash (evro zabor) shart. - O'ta kuchlanish, qisqa tutashuv va ortiqcha yuklanishdan himoyani ta'minlash majburiydir.

		- Elektron hisoblagich CAS va ichki tizimga ma'lumot uzatishi shart (elektron hisoblagich TE-73, MG-1-0, 5 A multi funksional)
12	Yetkazib beruvchiga talablar	- Yetkazib beriladigan barcha komponentlar uchun sifat va muvofiqlik sertifikatlarining mavjudligi. - Qurilma uchun kamida 10 yillik kafolat. - Bajarilgan ishlar uchun kafolat - kamida 5 yil. - Ijro hujjatlari va foydalanishga topshirish dalolatnomasini taqdim etish. - Qurilmalarning ishlab chiqarilgan yili 2026-yildan oldin emas
13	Mahsulotning raqobatbardoshlik sifatiga va ekologik parametrlariga qo'yiladigan talablar. Texnologiyaga, korxona rejimiga qo'yiladigan talablar	Ekologik toza.
14	Yetkazib berish va o'rnatish muddatlari	Shartnoma rasmiylashtirilgandan so'ng 60 kalendar kuni

Tayyorladi:

"O'zbekiston TMK" AJ


Zavod bosh energetigi o'rinbosari



D.I. Akramov

"O'zbekiston TMK" AJ

NM va QQICH zavodi direktori



I.S. Asadov

/ "O'zbekiston TMK" AJ

Zavod bosh energetigi



I.J. Nosirov